



TA'LIM SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR TIZIMINI TAHLIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Rustamova Yokut Baxodirovna

Uchtepa tumanidagi 312-umum ta'lim maktabi direktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tizimi, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'lim jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsning motivatsiyasi, emotsional holati, o'quv muhiti, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi psixologik muloqot madaniyati kabi omillarning roli yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, tanlov nazariyasi, individuallashtirish, standartlashtirish.*

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar kadrlar tayyorlash jarayonida ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Shu bilan birga, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, mavjud ehtiyoj va talablarning yetarlicha hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarni hududlar bo'yicha taqsimlashda muvozanat buzilmoqda. Natijada, ayrim hududlarda, xususan, pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj uzoq yillar davomida to'liq qondirilmay qolmoqda.

Tizimdagi bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida keyingiyillar mobaynida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalariga oid bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Intellectual salohiyati yuqor bo'lgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo'lga qo'yilsa, bu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globalashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o'z navbatida ta'lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Ta'lim sifati bevosita ta'limning maqsadi va strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Afsuski, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'limning aniq belgilangan maqsadi mavjud emasligi, mavjud maqsadlarning noaniqligi hamda an'anaviy ta'lim strategiyasining saqlanib qolayotgani uning samaradorligini pasaytirayotgan omillardan biridir. Chunki an'anaviy ta'lim strategiyasi o'sib kelayotgan shaxsning umumiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Natijada, ta'lim jarayonida sezilarli yo'qotishlar yuz beradi va bu, o'z





navbatida, umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining keyingi ijtimoiy hayotga moslashuv imkoniyatlarini cheklaydi.

Ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan:

- har bir o'quvchining qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'limni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona universal psixologik va pedagogik nazariyaning mavjud emasligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida hali-hanuz reproduktiv ta'lim texnologiyalarining ustunligi, ya'ni o'quvchilarda mustaqil fikrlashning samarali turlarini rivojlantirish o'miga, tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan yondashuvning saqlanib qolganligi;
- o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarligining yetarli emasligi, natijada o'quvchilarning kognitiv faollik darajasiga to'liq baho berilmayotgani;
- ta'limga nisbatan ijtimoiy motivatsiyaning pasayishi hamda jamiyatning ma'naviy-madaniy darajasining bu jarayonga bevosita ta'siri.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi yuqoridagi omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning samarali yo'llari ishlab chiqildi.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonida yangicha innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish jamiyatning eng muhim pirovard maqsadlaridan biri hisoblanadi. Biroq, ta'lim tizimida bunday amaliyotlarni samarali rivojlantirish murakkab iqtisodiy, moliyaviy hamda huquqiy boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishni talab etadi. Aynan shu jarayon ta'lim tizimini klasterlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida keng qo'llanilayotgan "klaster" atamasining mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, u — o'zaro bog'liq tashkilotlar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, tegishli tarmoqlardagi korxonalar hamda ularning faoliyati bilan bevosita aloqador bo'lgan tashkilotlarning ma'lum hudud (jo'g'rofiy belgilar) asosida birlashgan guruhini anglatadi.

Ta'lim sohasida klaster modeli esa "ta'lim – fan – ishlab chiqarish" tizimi o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, raqobatbardosh va samarador natijalarga erishishga xizmat qiluvchi tashkiliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, o'qituvchilar sifatli ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Shu sababli, avvalo, sifatli ta'limni ta'minlash uchun ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish, mehnat faoliyatlarida ularni rag'batlantirish hamda malaka toifalarini oshirishga ko'maklashadigan sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.





Ta'lim sifati muammosi, aslida, shaxs barkamolligi muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida inson intellektini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Sifatli ta'limni ta'minlash jarayonida tanlov nazariyasi alohida o'rin tutadi. Mazkur yondashuv orqali o'quvchi o'z faoliyatida rag'batlantiriladi, ya'ni u maktabda o'ziga xos sifatli mavjudlikni shakllantirish hamda unga erishish yo'lida mustaqil tanlov qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qituvchi esa o'quvchiga o'qitish va o'rganish jarayonlarida mustaqil fikrlash, tasavvur qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Tanlov nazariyasining yana bir muhim jihati shundaki, ta'lim jarayonidagi murakkab vaziyatlarda ham o'quvchilarni majburlamasdan, balki ularni boshqarishning samarali usullari orqali ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Boshqacha qilib aytganda, tanlov nazariyasi orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojiga qarab nimalarga ko'proq e'tibor qaratishni bilib olishi mumkin. Shu bilan birga tanlov nazariyasining zaif tomonlari ham mavjud bo'lib, bu birinchi navbatda, o'qituvchining mas'uliyati va o'quvchining hatti-xarakati o'rtasidagi ziddiyatda o'z aksini topadi. O'qituvchi maktabda o'quvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan muhit yaratishga mas'uldir, lekin ba'zan o'quvchilar o'z hatti-harakatlarini o'z ehtiyojlaridankelib chiqib tanlaydilar, ko'p hollarda bu tanlov ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etishi ham mumkin.

Ta'lim sifatini belgilab beruvchi keyingi xususiyat sifatida intellektual rivojlanish, ta'lim va o'z-o'zini o'qitish motivatsiyasi, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati bilan belgilanishi muhimligini e'tirof etish mumkin. Ta'lim sifati intellektual rivojlanishning yuqori qobiliyatini o'z ichiga olishi, o'quvchining ijodiy salohiyati, olingan bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash va uni qo'llash qobiliyatining muhimligi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqori intellektual qobiliyat mustaqil ijodiy faoliyat uchun muhim bo'lib, bu o'quvchining ta'lim sifati madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Ta'lim sifatini ta'minlanishida o'quv jarayoning sifati muhimligi keyingi xususiyat sifatida baholanadi. Ta'lim sifatini ta'minlashda o'qituvchining professionalligi, zamonaviy texnologiyalar va o'quv jarayonini zamonaviy usullarda olib borish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda o'qituvchining yetarli qobiliyatga ega ekanligi, tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berish qobiliyatining mavjudligi, dars jarayonlarining olib borilishida o'qituvchining haqiqiy boshqaruvchilik mahorati muhimligi e'tirof etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, har bir o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladigan ta'limni individuallashtirishni unutmaslik kerak. Ta'lim sifatining eng muhim qiymati uning individuallashtirishi bo'lishi kerak. Ta'limni individuallashtirish – bu har bir o'quvchi va o'qituvchining salohiyatini





shakllantirish va ro'yobga chiqarish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchiga individual holatda yondashishdir.

Ta'lim mazmunida, eng avvalo, an'anaviy ta'limning tor yo'nalishli, faqat bilim berishga qaratilgan xususiyatlaridan voz kechish lozim. Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilimlarini uslubiy va madaniy jihatdan boyitishga, ularning tafakkurini kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Bu esa ta'lim sifatining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. –T.:“O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. B.X.Xodjayev “Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017
3. M.Sharifxo‘jayev. O‘zbekiston: yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. - T.: «Sharq» nashriyoti, 2004.
4. Olimov Q.T., Sayidaxmedova M.S., Jalolova D.F., Bozorova M.Q., Boltaeva M.L., Alimov A.A., Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.,- 2012.- 300b

